

Qarshiyev Shahboz Jumma o'g'li

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIY SUDLARI ORQALI KORPORATIV NIZOLARNI HAL ETISH

Annotatsiya: Tadbirkorlar faoliyati jarayonida kelib chiquvchi nizolarni iqtisodiy sudlar tomonidan ko`rib chiqilib, mavjud nizoga qonuniy yechim beriladi.

Qonuniylikning ta`minlanishi korporatsiyalarning faoliyati samarali boshqaruvini kafolatlaydi. Aynan sudlar tizimining to`g`ri ishlashi butun bir jarayonni tartibga solib turadi. Tadbirkorlik subektlarini turli xil noqonuniy xatti-harakat yoki harakatsizliklardan himoya qilish fuksiyasini bajaradi.

Kalit so`zlar: Korporativ nizo, korporatsiya, da`voo ,aksiyadorlar, korporativ tashkilotlar, iqtisodiy sudlar, qonuniylik.

Hozirda dunyo davlatlari miqyosida sud tizimi sohasida sezilarli o`zgarishlar va yangilanishlar kuzatilmoda. Xuddi shular singari O`zbekiston Respublikasida ham sudlar orqali tegishli masalalar yuzasidan qonuniy va adolatli yechim toiladi. Xususan, iqtisodiy sudlar ham o`z vakolatlari doirasida har bir masalalarni ko`rib chiqib, unga qonuniy jihatdan yechim beradi. O`zbekiston Respublikasida tadbirkorlikni yanada rivojlantirish bo`yicha harkatlar strategiyasi asosida korporativ boshqaruvning yangi va zamonaviy usullarini tatbiq etish hamda korporativ boshqaruvda aksiyadorlarning rolini yanada oshirish, ularning chet el kapital bozoriga raqobatbardosh bo`lib

kirishini ta`minlash, xorijdan investitsiyalarni to`g`ridan to`g`ri jalb etish, investorlarning huquqlarini kafolatlash yuzasidan bir qator vazifalar maqsad qilib belgilandi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “ O`zbekiston Respublikasi sud tizimini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to`g`risida gi 4966-sonli Farmoniniga asosan sud tizimiga o`zgartirish kiritilganidan keyin, ya`ni 2017-yilning 1-iyunudan boshlab korporativ nizolar Qoraqalpog`iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar iqtisodiy sudlari, tumanlararo, tuman (sshahar) iqtisodiy sudlari tomonidan hal etib kelinmoqda va bu borada nizolarni ko`rib chiqish 2018-yilning 24-yanvarida qabul qilingan O`zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksida belgilangan tartibda amalga oshirilmoqda.

Korporativ nizo taraflarining huquq va manfaatlarini qonuniy himoya qilish borasidagi muammolar to`laqonli hal etildi. So`ngi yillarda tadbirkorlik, subektlari huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularing faoliyatiga asossiz ravishda aralashishning oldini olish borasida keng ko`lamli islohotlar amalga oshirilayapti. Korporativ nizolar bo`yicha ishlar O`zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksida nazarda tutilgan qoidalar asosida sud tomonidan ko`rib chiqiladi. Bu davrgacha, ya`ni 2017-yilgacha bo`lgan muddatda shu kabi ishlar Xo`jalik protsessual kodeksi asosidako`rib chiqilayotgan edi. Korporativ nizo atamasi ilk marotaba 2015-yildan boshlab qonunchilik hujjatlariga kiritildi. Ta`kidlash joizki korporativ

nizolar tushunchasi haqida qonun hujjatlarida aniq tushuntirishlar keltirilmagan bo`lib, bu haqda xorijiy davlatlar qonunchiligida ham turlicha qarshlar mavjud.

Korporativ nizo subektlariga to'xtaladigan bo'lsak, korporativ nizolar bo'yicha ishda ishtirok etuvchi shaxslar ham, yuridik shaxslar ham ishtirok etishi mumkin bo'ladi. Misol uchun to'liq shirkat, komandit shirkat, mas'uliyati cheklangan jamiyat, aksiyadorlik jamiyatlari, qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat, ishlab chiqarish kooperativlari shular jumlasidandir.

Har qanday mamlakat korporativ munosabatlarida quyidagi uch turdagi konfliktlar mavjud:

- Menejerlar va aksiyadorlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklar;
- Majoritar va minoritar aksiyadorlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklar;
- Aksiyadorlar va kreditorlar hamda xodimlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklar;

Bu kabi holatlarda ko'proq dividendni to'lash masalasida ziddiyatlar kelib chiqadi.

Dividend- jamiyatning sof foydasining bir qismi bo'lib, u jamiyatning oddiy yoki imtiyozli aksiyadorlarning jamiyat ustav kapitalidagi ulushlariga munosib ravishda aksiyadorlar o'rtasida taqsimlanadi.

Ishtirokchilar huquqlari buzilgan taqdirda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy sudlariga murojaat qilishi belgilangan. E'tiborli jihati shundaki faqat qonun bilan vakolat berilgan shaxslargina korporativ munosabatlarda da'vo qilish huquqiga ega hisoblanadi.

Umumiy yig'inish qarorlarini haqiqiy emas deb topish uchun quyidagi talablar qo'yiladi:

- aksiyador (ishtirokchi) lar shikoyat qilingan qaror xo'jalik jamiyatlari to'rtasidagi va boshqa qonun hujjatlarni yoki jamiyat ustavi talablarini buzganligini isbotlashi kerak.
- aksiyadorlarning umumiy yig'inishida ishtirok etmagan yoki bunday qarorga qarshi ovoz bergan aksiyador (ishtirokchi) tomonidan shikoyat qilinishi mumkin;
- aksiyador (ishtirokchi) shikoyat qilinayotgan qarorning o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzganligini isbotlashi kerak.

Umumiy yig'ilish- korporativ boshqaruvning eng yuqori bosqichi hisoblanib, bunda ishtirokchilar jamiyat hayoti uchun muhim bo'lgan masalalarni aniqlab, ovoz berish orqali amalga oshiriladi.

Xulosa:

Tadbirkorlarning huquq va manfaatlarini himoya qilinishini ta'minlash va faoliyatini tartibga solishda iqtisodiy sudlarning o'lni muhim hisoblanadi. Har bir tashkilot faoliyatida turli xil nizolarga duch keladi. Bu masalalarga qonuniy va adolatli yechim berilishi sudlar tomonidan kafolatlandi. Avvalambor, nizolarni vujudga keltiruvchi sabablarni bartaraf etish zarur. Mavjud nizo va kelishmovchiliklarni muzokara yo'li orqali hal etish eng oddiy va samarali usul hisoblanadi. Tadbirkorlarning faoliyatini yuritishda Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida gi qonun muhim o'rin tutadi. Bu qonunning asosiy maqsadi tadbirkorlik subektlarining huquq va manfaatlarini himoya qilishdan iborat. Har bir tadbirkorlik subektlarining erkin faoliyat yuritishi qonun bilan kafolatlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tuzuvchilar: y.f.d prof Z.N.Esanova y.f.d prof. O.Okyulov sudya M.Saidov va boshqalar Iqtisodiy protsessual huquqi . Darslik.T. 2020y. b.9-10
2. Tuzuvchilar: B.Umarov X.Atajanov Kooperativ huquq Darslik.T.2021y. b. 2-3.
3. O`zbekiston Respublikasi Sudlar to`g`risidagi qonuni. T. 2021y.
4. Tuzuvchilar: y.f.d prof. Z.N.Esanova y.f.n prof D.Xabibullayev va boshqalar. Iqtisodiy protsessual huquqi . Darslik.T.2022.b.276-280.
5. O`zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual Kodeks .T.2018y

.O`zbekisto Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-fevraldagi O`zbekiston Respublikasisud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora tadbirlari to`g`risida gi PF-4966-sonli Farmoni .